

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.E.Madaliyev	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
N.R.Mansurova	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari	120
M.M.Maxamadjonova	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi	132
D.D.Mirzaakbarov	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li	136
A.Y.Axmedov	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida	141
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati	146
S.T.Aldasheva	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	151
A.T.Nazarov	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
U.K.Rahmonov	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
S.A.Mahmudova	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
J.O.Amirov	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
X.O.Pardayeva	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi	184
M.Barakayev, M.Nasritdinov	
Ta'limi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
Sh.O.Aripov	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari	200
D.T.Nishonova	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish	213
X.X.Abdurahmov	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
M.M.Turg'unov	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi	223



УО'К: 378.014.15

YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIGA XALQARO STANDARTLARNI JORIY QILISH METODOLOGIYASI

МЕТОДИКА ВНЕДРЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ В УПРАВЛЕНИЕ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

THE METHODOLOGY OF INTRODUCING INTERNATIONAL STANDARDS TO THE MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN NEW UZBEKISTAN

Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich 
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo'llari, institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari o`rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda oly ta'lif muassasalarini boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретические и методологические основы совершенствования механизмов внедрения принципов институциональной независимости, пути совершенствования механизмов внедрения принципов институциональной независимости на основе международных стандартов, задачи совершенствования механизмов внедрения принципов институциональной независимости. Изучаются институциональная независимость. Также анализируются актуальные вопросы совершенствования механизмов внедрения принципов институциональной независимости.

Abstract

In this article, the theoretical and methodological foundations of improving the mechanisms of introducing the principles of institutional independence, the ways of improving the mechanisms of introducing the principles of institutional independence based on international standards, the tasks of improving the mechanisms of introducing the principles of institutional independence are studied. Also, current issues of improving the mechanisms of introducing the principles of institutional independence are analyzed.

Kalit so'zlar: institutsional mustaqillik, tamoyil, mexanizm, takomillashtirish, nazariy-metodologik asos, xalqaro standartlar, boshqaruv, boshqaruvchilik kompetensiyalari, akademik, ta'lif determinantlari, marketing, menejment, integratsiya, prognozlashtirish, globallashuv, funksional, raqamlashtirilgan tizim.

Ключевые слова: институциональная независимость, принцип, механизм, совершенствование, теоретико-методологическая основа, международные стандарты, менеджмент, управленческие компетенции, академические, образовательные датерминанты, маркетинг, менеджмент, интеграция, прогнозирование, глобализация, функционал, цифровая система.

Key words: institutional independence, principle, mechanism, improvement, theoretical-methodological basis, international standards, management, managerial competencies, academic, educational determinants, marketing, management, integration, forecasting, globalization, functional, digitized system.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va raqobatdoshligining hal qiluvchi omili bu bilimdir. Bilimlar iqtisodiyoti ishlab chiqiladigan intellektual kapitalni ko'paytirishni ta'minlash uchun oly ta'lif tizimiga alohida talablarni qo'yadi. Oly ta'lif tizimining muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan zamonaviy sharoitlarda qo'llanilayotgan boshqaruv tamoyillari, usullari va yondashuvlarining mosligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oly ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida "Oly ta'lif muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha, tajriba tariqasida davlat ulushining 51 foizdan kam bo'lmagan qismini saqlab qolgan holdaayrim davlat olyi

PEDAGOGIKA

ta'lim muassasalarini (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, ularda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish nazarda tutilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimiz olimlaridan U.SH.Begimkulov, B.SH.Usmanov, M.F.Hakimova, M.A.Yuldashev, Z.K.Ismailova, Q.X.Abduraxmanov, G.N.Axunova, B.A.Begalov, A.SH.Bekmurodov, S.S.Gulyamov, Sh.N.Zaynudinov, M.A.Ikramov, N.K.Yo'ldoshev, I.U.Majidov, D.X.Nabiiev, R.I.Nurimbetov, B.X.Raximov, D.N.Raximova, R.A.Raxmanbayeva, M.X.Saidov, A.N.Samadov, T.SH.Shodiyev, Sh.D.Ergashxodjayeva, A.T.Yusupov, Sh.Qurbanov va boshqalar, MDH davlatlari olimlaridan N.V.Demidov, S.V.Sulima, S.A. Drujilov, K.I. Morozova, S.D.Reznik, S.M.Vasin, O.A.Sazikina, O.Bichkova, L.Verbitskaya, V.Kasevich, M.V.Niyazova, V.YE.Varavenko, Yoxan G.Vissema, F.Altbax, P.Y.Grishina, R.N.Abramov, E.V.Galajinskiy, A.O.Grudzinskiy, R.Dim, V.Konnov, M.Repina va boshqalarning ilmiy asarlarida institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etishga doir metodologik jihatlar o'rganilgan va tahlil qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mamlakatimizning ko'plab ijtimoiy, tashkiliy, iqtisodiy, institutsional, madaniy, kadrlar, axloqiy va boshqa muammolarni keltirib chiqargan bozor munosabatlari tizimiga kirishi oliy ta'lim sohasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Rivojlanishning innovatsion yo'nalishiga yo'naltirilgan tarmoq islohoti, davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchan siyosati va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohaning samaradorligini oshirish uchun bozor mexanizmlaridan foydalangan holdaeralash modellarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Oliy ta'limga ommaviy talabning o'sishi tendensiyasi aniq ko'rindigan makrodarajadagi oliy ta'limda boshqaruvning bozor tamoyillariga moslashish jarayonlari, asosan, ma'muriy islohotlar, yangi davlat boshqaruvining joriy etilishi vaoliy ta'limi moliyalashtirishda davlat ulushining kamayishi natijasida sodir bo'ladi. Bozor yondashuvi oliy ta'lim samaradorligini baholashda tizim raqobatbardoshligi, samaradorligi, hisobdorligi, shaffofligi va sifatining muhimligini ta'kidlaydi. Mikrodarajada ushbu tendensiyalar Oliy ta'lim muassasalarini(bundan keyin OTMlar)ning daromad manbalari va moliyaviy oqimlarini faol ravishda diversifikatsiya qilishga, zamonaviy boshqaruv va budgetlashtirish usullarini joriy etishga va o'z faoliyatini mijozga yo'naltirishga majbur qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qaroriga muvofiq, "OTM learning mustaqilligi, institutsional mustaqilliklar, resurslarni mustaqil boshqarish, strategik qarorlarni ishlab chiqish va amalgaoshirish uchun asos yaratib, davlat aralashuvining roli kamaymoqda. Oliy ta'limgagini institutsional o'zgarishlar universitetlarning erkinlik darajasini kengaytirishga qaratilgan, chunki xaridorlarning turli guruhlariga taqdim etiladigan turli xil ta'lim shakllariga talab va taklifni tartibga solish jarayonida bozor mexanizmlari ko'pincha ma'muriy mexanizmlarga qaraganda samaralidir.

Dunyoda moddiy boyliklardan ko'ra intellektual resurslar uchun raqobat kuchayib borayotgan bugungi davrda har bir mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishidaoliy ta'lim etakchi o'rinn tutmoqda. XXI asrda bu yo'nalish nafaqat ijtimoiy va siyosiy, balki iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan birigaaylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'limganing ko'plab vazifalari mavjud. Eng asosiyalaridan biri milliy rivojlanishga hissa qo'shish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlashdir. Ayniqsa, uchinchi bosqich ta'limiyuqori samarali, moslashuvchan malakali ishchi kuchini tayyorlash, yangi g'oyalalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, joriy etish va tarqatish orqali iqtisodiyotning raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi.

Pandemiya sharoiti tufayli hozirgi kunda ta'lim auditoriyalar, laboratoriya va kutubxonalardan tashqarida davom ettirilyapti. Talabalarning masofadan o'qishiga to'g'ri kelayotgan bo'lsa-da, bu ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etmayapti. Aksincha, raqamli texnologiyalar fanlarning mazmuni va ularni taqdim etish shaklini tubdan o'zgartirmoqda. Mazkur holat nafaqat elektron taqdimotlar yoki videodan foydalanish, balki elektron ma'lumotlar bazalariga to'g'ridan-to'g'ri ularish, yangiliklar, o'tish forumlari, videotranslyatsiya, stimulyatsiya tizimlari, elektron trenajyorlarni qo'llash imkoniyatlarini oshirmoqda. Shu tariqa ta'limga transformatsiya sodir bo'ladi.

Zamonaviy "transformatsiya" so'zi adabiyotlarda "modernizatsiya" atamasi bilan bir-birining o'rnida qo'llaniladi. Oliy ta'limi transformatsiyalash dolzarb boshqaruv muammolaridan biri bo'lib,

universitetning transformatsiyasi 3 ta vazifa — iqtidorlilarni jamlash, resurslar bilan ta'minlash, samarali boshqaruv tizimiga asoslanadi.

Iqtidorlarni jamlash vazifasini amalgaoshirishda, avvalo, universitetlarga har bir sohadan eng yuqori ilmiy ko'rsatkichga ega talabalarni tanlash tartibini mustaqil ravishda belgilashga ruxsat berish lozim. Masalan, Xitooning eng yaxshi Pekin universitetida akademik izolyatsiya (magistraturaga faqat o'z bitiruvchilarini qabul qilish va, asosan, sobiq bitiruvchilardan professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish) xavfining oldini olish uchun har yili barcha provinsiyalardan 50 nafar eng yaxshi abiturient qabul qilinadi.

Ikkinci vazifada resurslarni ta'minlash uchun to'rttaasosiy moliyalashtirish manbaini hisobga olish kerak. Bular davlat budgeti, davlat vaxususiy kompaniyalar uchun shartnoma asosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan olinadigan daromad, universitetlarga ajratilgan mablag'lardan olingan daromad hamda ta'limga uchun to'lovlarini o'z ichiga oladi.

Samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish uchun esa universitetlarda erkin raqobat ruhi, cheksiz ilmiy izlanuvchanlik, tanqidiy fikrlash, innovatsiya va ijodkorlikni shakllantirishga ko'maklashuvchi muhit va mehnat sharoitlarini yaratish zarur. Ayni paytda to'liq boshqaruv avtonomiyasiga ega universitetlar yanada moslashuvchan bo'lib bormoqda. Boisi, ular tashqi majburiy standartlar bilan bog'lanmagani hisobiga o'z resurslarini boshqarish va tez o'zgaruvchan global bozor ehtiyojlariga javob berishi mumkin. Umuman olganda, mablag'larni taqsimlash, o'qituvchi vaxodimlarni yollash, ularga ish haqini belgilash uchun har bir universitetning o'z moliyaviy avtonomiyasini bo'lishi lozim.

Bu o'rinda oly ta'limga muassasalari transformatsiyasiga 3 xil yondashuv ham alohida ahamiyatga ega. Unda mavjud universitetlarni modernizatsiya qilish, ularning birlashishi hamda yangi universitetlarni tashkil etishi nazarda tutiladi.

Transformatsiya orqali talabalarda individual o'quv dasturlarini shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. O'qituvchiga retranslator sifatida ehtiyoj yo'qoladi. Uning vazifasi talabalarga katta hajmdagi ma'lumotni boshqarishda yordam berishdan iborat bo'ladi. Iste'molchilarni ta'limga undashga zarurat tug'iladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanimlib, etakchi mutaxassis yoki ekspert onlayn vositalar orqali dars o'tadi.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, mamlakatimizning kamida 10 ta universiteti 2030-yilga qadar xalqaro miqyosda tan olingan tashkilotlar reytingida oly o'quv yurtlari ro'yxatining dastlabki 1000 pozitsiyasiga kirishi ko'zda tutilgan. Buning uchun, albatta, oliy o'quv yurtlarini o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish, o'quv jarayoniga zamonaviy kreditmodul tizimini joriy qilish talab etiladi.

2020-yil 6-avgust kuni Prezidentimiz raisligida joriy yilda oly ta'limga muassasalariga qabulni tashkil qilish va 2020/2021 o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, kamida 35 ta davlat universitetida ta'limga kreditmodul tizimi asosida tashkil etilishi belgilangan. Shu munosabat bilan joriy yilda nufuzli xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda O'zbekistonning kamida 5 ta universiteti transformatsiya jarayonini boshdan kechiradi. Bunda ta'limga tarkibi va texnologiyalari yaxshilanadi, natijada universitetlar zamonaviy ta'limga berish va innovatsiyalarni joriy etishga qodir ilmiy muassasalarga aylantiriladi.

Yana bir ahamiyatli jihatni, malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'liq muammolarni hal etish, shubhasiz, o'quv jarayonini qayta tashkil etishdan kelib chiqishi kerak. Kelgusi ta'limga tendensiyasi raqamlashtirish bilan uzviy bog'liq. Bu esa mehnat bozorini o'zgartiradi va yangi vakolatlarning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Mos ravishda keyingi o'n yil oliy ta'limga muhim o'zgarishlar davri - raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi o'rta sinfni shakllantirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish asosida o'quv jarayonini qayta tashkil etish bosqichi bo'lishi lozim.

Ta'limga raqamlashtirishni isloh qilish ularni zamonaviy texnologiyalar - internet tarmog'iiga ulangan kompyuterlar, ta'limga resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimlari, zamonaviy ilmiy izlanish va ishlamalar natijalari, dunyoning turli tillarida elektron ilmiy kutubxonalar bilan jihozlashni nazarda tutadi. Ta'limga raqamli iqtisodiyotga asoslangan ravishda rivojlanishi bilan sohada davlatning roli pasayadi. Ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh ta'limga xizmatlarining yangi etkazib beruvchilarini paydo bo'lishi uchun sharoit va talablar yaratiladi. Bitiruvchilarning istiqbolli kasb va malakalarini aniqlash uchun ish beruvchilar bilan samarali o'zaroaloqalarni o'rnatish universitetlarning asosiy vazifalaridan biriga ayylanadi. Faol va innovatsion OTM'lari ta'limga bozoriga kirib, maxsus kurslarni taklif etishi ham mumkin.

PEDAGOGIKA

Bugungi kunda dunyodagi universitetlarning ta'lim va tadqiqot faoliyati eng nufuzli, xalqaro miqyosda tan olingen Times Higher Education World University Rankings (Buyuk Britaniya) va QS World University Rankings (Buyuk Britaniya) kabi tizimlarda baholanadi. Universitetlar reytingidaasosan ta'lim va ilmiy tadqiqot faoliyatidan kelib chiquvchi ko'rsatkichlargaasoslaniladi, ta'lim sifati, xalqaroaloqalar, so'nggi 5 yil natijalari tahlil qilinadi. Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida 2019-yilda O'zbekiston universitetlari - Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti QS World University Rankings for Eastern Europe and Central Asia (EECA) reytingida ilk bor 301-350-o'rnlarni, 2020-yilda O'zbekiston Milliy universiteti Times Higher Education World University Rankings reytingida 601-o'rinni, Toshkent tibbiyot akademiyasi 301-400-o'rinni hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 201-o'rinni egalladi.

2019-yilda Digital Commons platformasi asosida "Elsevier" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Uzbekistan Research Online" raqamli platformasi ishga tushirildi. U ilmiy maqolalarni oliy ta'lim muassasalari ta'lim jurnalida ikki darajali yopiq retsenziyalash imkoniyatiga ega.

XULOSA

Bunday loyihalarni amalga oshirish uchun har bir alohida mintaqaga chuqur tahlil vaechim izlashi kifoya. Ko'pchiligidan havas qiladigan jahon darajasidagi universitetlar uchun yagona retsept yoki sehrli formulalar mavjud emas. Shunchaki har bir davlat turli rivojlanish usullaridan aynan o'zining salohiyati va resurslariga mos keluvchi to'g'ri strategiyani tanlay bilishi kerak, xolos. O'zbekiston ham bu borada o'zi tanlagan eng to'g'ri va samarali yo'ldan bormoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Incheon Declaration Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
2. Bush, T. (2003) Theories of Educational Leadership and Management. 3rd edn. London: Sage.; Clark, B.R. (1983a). The Higher Education System. Berkeley: University of California Press
3. Valentine, J. W., & Prater, M. (2011). Instructional, transformational, and managerial leadership and student achievement: High school principals make a difference. NASSP Bulletin, 0192636511404062.
4. Камбаров Ж.Х., Турдалиева М.М. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини назорат қилишни такомиллаштириш масалалари. Замонавий таълим журнали. 2014. №7. –Б. 19.
5. Мухторов А, Султонов Т. Таълим соҳасини ривожлантириш бўйича хорижий тажрибалар// Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. № 4, май, 2012. –Б.2.
6. Ниязова М. В., Варавенко В. Е. Управление процессами реорганизации вузов: принципы, тенденции, риски // Университет. управление: практика и анализ. 2013.№ 4. С. 59–68.